

CHIZMACHILIK DARSLARIDA KICHIK GURUHLAR BILAN ISHLASHDA INDIVIDUAL YONDASHUV

Imomov Fozil Shakarbek o'g'li
GDPI “Muhandislik grafikasi va
dizayn nazariyasi” yo‘nalishi magistranti
e-mail: fozilimomov68@gmail.com
Tel: +998 90 401-32-36

Annotatsiya: Kichik guruhlar bilan ishlashning afzalliklari va muammolari, shuningdek, individual yondashuvni qanday qilib samarali qo‘llash mumkinligi haqida fikrlar bildirilib, amaliy misollar keltiriladi. Shu bilan birga, maqola o‘quvchilarning chizmachilik darslarida o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish va jamoaviy ishda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan yondashuvlarni belgilashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: fikrlash, fazoviy tasavvueni shakillantirish, ko‘nikma, individual yondashuv, qobiliyat, kreativ fikrlashni rivojlantiradilar.

Chizmachilik darslari ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu soha talabalarga kreativ fikrlash, fazoviy tasavvur va muhandislik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu darslar davomida o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallaydi. Chizmachilik jarayonida kichik guruhlar bilan ishlash, o‘z navbatida, o‘quvchilarga bir-birlari bilan fikr almashish, tajribalarini baham ko‘rish va birgalikda muammolarni hal qilish imkoniyatini taqdim etadi. Kichik guruhlar bilan ishlashning afzalliklari ko‘p bo‘lib, ular o‘quvchilarning jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradi va o‘zaro ta’sirni oshiradi. Biroq, har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlari, ehtiyojlari mavjud bo‘lganligi sababli, individual yondashuvni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Individual yondashuv, o‘quvchilarning o‘z qobiliyatlarini to‘liq namoyon etishlariga, shuningdek, o‘z-o‘zini rivojlantirishlariga yordam beradi va o‘quvchilarning jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [1].

Kichik guruhlar bilan ishlash orqali o‘quvchilar o‘zaro o‘qitish jarayonida faol ishtirok etadilar, bu esa ularga bir-biridan o‘rganish va yangi g‘oyalarni kiritish imkoniyatini beradi. O‘quvchilar birgalikda ishlash orqali kreativ fikrlashni rivojlantiradilar va ijtimoiy ko‘nikmalarni oshiradilar. Biroq, kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida ayrim muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, o‘quvchilar o‘rtasidagi tengsizlik, ayrim talabalarning faol ishtirok etmasligi yoki guruh ichidagi muloqotning zaifligi dars jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun pedagoglar guruhda ishlash jarayonini

rejalashtirishda diqqatli bo‘lishlari va har bir o‘quvchining qatnashishini ta’minlash choralari ko‘rishlari zarur [2].

Individual yondashuv har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlari, qobiliyatlarini hisobga olgan holda talim jarayonini tashkil etishdir. Chizmachilik darslarida individual yondashuv o‘quvchilarning o‘z qobiliyatlarini to‘liq namoyon etishlariga imkon beradi. Bu yondashuv orgali har bir o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, samaradorligi oshadi, chunki ular o‘z qobiliyatlariga mos ravishda o‘qitilishadi. Pedagoglar guruh ichida har bir a’zoning ro‘lini belgilash va ularning kuchli tomonlarini rivojlantirishga yordam berishi lozim. Bu yondashuv guruh dinamikasini kuchaytiradi va o‘quvchilarning umumiy muvaffaqiyatini oshiradi. Jamoaviy ish va individual rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir o‘quvchilarning nafaqat jamoada ishlash ko‘nikmalarini, balki shaxsiy rivojlanishlarini ham ta’minlaydi. Kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida individual yondashuvni qo‘llash, har bir o‘quvchining o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi va natijada jamoaning umumiy muvaffaqiyatiga olib keladi. Lekin o‘quvchilar bilan individual shug‘ullanish uchun vaqt chegarallangan. O‘quvchilarni har bir bajarayotgan ishlarini kuzatish va ularni bajarayotgan chizmalarini tekshirish imkoniyati bo‘lmaydi. Aynan shuning uchun guruhdagi yetakchi o‘quvchilarni guruhlarini boshqarish va nazorat qilishga yordamlashish so‘raladi. Sinfda o‘quvchilarni bilim darjasiga qarab teng taqsimlanadi.

Misol uchun: biron sinf o‘quvchilarni individual yondashuvda jamoaning o‘rnini o‘rganish jarayonida sinfdagi o‘quvchilar soni va ularning baholari muhim ahamiyatga ega. Ushbu sinfda jami 28 ta o‘quvchi mavjud bo‘lib, ularning baholarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- ✓ 5 bahoga o‘qiyotgan o‘quvchilar: 8 ta
- ✓ 4 bahoga o‘qiyotgan o‘quvchilar: 12 ta
- ✓ 3 bahoga o‘qiyotgan o‘quvchilar: 8 ta

Bu statistik ma’lumotlar bo‘yicha, baholarni taqsimlash sinfnining umumiy bilim darajasini belgilaydi va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar orasida yuqori, o‘rta va past baholar mavjudligi, ularning o‘zaro hamkorlikda ishlashini tashkil etishda individual yondashuvni talab qiladi.

O‘quvchilarni samarali ta’lim olishlari va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, o‘quvchilarni 4 ta guruhga ajratish zarur. Guruhlar har bir a’zo o‘zining o‘rnini va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. Barcha guruhlar taqsimlanishi quyidagicha bo‘ladi:

- ✓ 2 ta 5 bahoga o‘qiyotgan o‘quvchi
- ✓ 3 ta 4 bahoga o‘qiyotgan o‘quvchi
- ✓ 2 ta 3 bahoga o‘qiyotgan o‘quvchi
- ✓ Jami: 6 nafar o‘quvchi

Ushbu guruhlar taqsimoti, har bir guruhda yuqori baholarga ega o'quvchilar va o'rta baholarga ega o'quvchilar bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa o'quvchilarning o'zaro bilim almashishini, hamkorlikda ishlashini va turli xil qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Har bir guruhda turli darajadagi o'quvchilar mavjudligi, o'quvchilarga bir-birlaridan o'rganish imkoniyatini yaratadi va jamoaviy ishni rivojlantirishga ko'maklashadi. Ushbu guruhlar tuzilishi orqali o'quvchilarning o'zaro hamkorligi kuchayadi va har bir guruhda o'zaro yordam muhitini yaratishga erishiladi. Bu esa o'quv jarayonida individual yondashuvning samaradorligini oshiradi. Kichik guruhlar doirasida hamkorlikni rag'batlantirish o'qish jarayonini yaxshilashga yordam beradi, shu bilan birga individual hissalar uchun imkoniyat yaratadi. Guruh loyihalari har bir a'zoning kuchli tomonlariga asoslangan holda tuzilishi mumkin, bu esa jamoa ishini va umumiy ijodiy jarayonni rivojlantiradi. Ushbu yondashuv talabalar o'zaro o'rganishlariga yordam beradi, shu bilan birga o'z san'at g'oyalarini amalga oshirishlariga imkon beradi.

Guruhlar uchun amaliy topshiriq detalni proyeksion ko'rinishlarini topish va yaqqol tasviriga qirqim berish. Topshiriqni bajarish tartibi quyidagicha bo'ladi:

-guruhlarda a'lo bahoga o'qiydigan o'quvchilar guruhda yetakchilik qilishadi. Birinchi yetakchi o'quvchi guruhni har bir a'zosi bilan ishlaydi, vazifalarni taqsimlaydi va bajarilishini nazorat qiladi. Ikkinchi yetakchi o'quvchi topshiriqdagi yaqqol ko'rinishi va unga qirqim berishni bajaradi.

-guruhni qolgan a'zolariga bir o'quvchiga chizmada foydalaniladigan bir chiziq turlarini beriladi va faqat o'sha chiziq turidan foydalanib chizmani tugatishga o'z hissasini qo'shadi.

Ushbu guruhlar asosida tashkil etilgan amaliy topshiriq o'quvchilarga o'zaro hamkorlikda ishlash, bilim almashish va jamoaviy yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi. Guruhlarning har bir a'zosi o'zining baholanish darajasiga qarab, ma'lum bir rolda qatnashadi, bu esa o'quvchilarning har biri uchun o'ziga xos vazifalarni bajarish va o'z hissasini qo'shish imkoniyatini yaratadi.

Amaliy topshiriq orqali, yuqori baholarga ega o'quvchilar yetakchilik qilmoqda, bu esa guruhdagi ishlarni samarali tashkil etishga yordam beradi. Birinchi yetakchi o'quvchi guruhni boshqarib, vazifalarni taqsimlash va ishni nazorat qilishni amalga oshirsa, ikkinchi yetakchi o'quvchi chizmada yaqqol ko'rinish va uning qirqimini bajarishga mas'ul bo'ladi. Bu yondashuv guruh a'zolarining o'zaro yordam ko'rsatishini, shuningdek, har bir o'quvchining o'z qobiliyatini yanada rivojlantirishga imkon beradi.

Guruhni qolgan a'zolariga berilgan chiziq turlariga asoslangan vazifalar ularning kreativlik va diqqatini jalb etadi, har bir a'zo o'z hissasini qo'shadi. Shu bilan birga, bu guruhdagi jamoaviy ishni va ijodiy jarayonni rivojlantirishga yordam beradi.

Natijada, o‘quvchilar o‘zaro ta’sir va hamkorlik orqali bir-birlaridan o‘rganadi, o‘z bilimlarini rivojlantiradi. Bu yondashuv individual va jamoaviy muvaffaqiyatni bir vaqtning o‘zida ta’minlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov A. Abdurahmonov “Chizmachilikdan ma’lumotnoma”, Toshkent-2003.
2. J.Y. Yodgorov, T.R. Sobirov, N.J.Yodgorov “Geometrik va proeksion chizmachilik” “Fan” nashriyoti-2020.
3. Murodov Sh.K., Hakimov L.Q., Xolmurzayev A. Chizma geometriya. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2006.
4. Ismatullayev R.Chizma geometriya. –T.: “© NIZOMIY NOMIDAGI TDPU”, 2003.
5. Бубеников А.В. Начертательная геометрия. –М.: “Высшая школа”, 1985.
6. Электрон ресурс: <https://hozir.org/zamonavii-ahborot-tehnologiyalarining-rivojlanaetgan-junalishl.html>
7. Yakubova. N.O. Chizmachilik (1-qisim) qo‘llanma –T.: “Ilm ziyo zakovat” 2023